

## O‘ZBEKISTONDA GENDER TENGLIK ROLI VA AHAMIYATI

Sulaymonova Madina Qurbonovna

E-mail: [sulaymonovamadina084@gmail.com](mailto:sulaymonovamadina084@gmail.com)

Buxoro davlat universiteti “Tarix va yuridik” fakulteti

5-2 YURS 25 guruh 1-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikning jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda ayol va erkak huquqlari, ularning tengligi, shuningdek, gender tenglikni ta‘minlashga qaratilgan amaliy va huquqiy mexanizmlar tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** Gender tenglik, inson huquqlari, adolat, erkinlik, itimoiy rivojlanish, mehnat huquqlari, ayol va erkak huquqlari, barqaror rivojlanish.

## KIRISH

O‘zbekistonda gender tenglik masalasi jamiyat rivojlanishida muhim o‘rin egallaydi. Ayol va erkaklarning teng huquqliligi nafaqat inson huquqlari va erkinlikni ta‘minlashga xizmat qiladi, balki ijtimoiy adolat, demokratiya va qonun ustuvorligini mustahkamlashga ham yordam beradi. Gender tenglikni ta‘minlash davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ta‘lim, mehnat va boshqa ijtimoiy sohalarda teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan. Davlat huquqiy normalar orqali gender tenglikni qo‘llab-quvvatlaydi, bu esa jamiyatda adolat, hamjihatlik va barqaror rivojlanishning mustahkam asosini yaratadi. Ayollar va erkaklarning teng huquqliligi ta‘lim imkoniyatlarini kengaytiradi, mehnat bozorida teng sharoitlar yaratadi, shuningdek, fuqarolarning jamiyatdagi faol ishtirokini rag‘batlantiradi. Shu sababli, gender tenglikning roli nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda ham

sezilarli. Uning amaliy ijrosi fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy hamjihatlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. O'zbekistonda gender tenglikni rivojlantirish davlat siyosati va normativ-huquqiy aktlar orqali tartibga solinmoqda, bu esa barqaror va adolatli jamiyat barpo etishda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 23-sentabr kun Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambelyasining 75-sessiyasida o'zbek tilida so'zlagan nutqida O'zbekistonni siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlarini ko'rsatib, gender tenglik masalasiga alohida to'xtalganlar. Nutqlarida: "Biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o'rni tobora kuchaymoqda shuningdek, yangi parlamentimizda ayol deputatlar soni ikki barobarga ko'paydi" deb e'tirof etadilar. O'zbekiston Respublikasi joriy Konstitutsiyasining 58-moddasida ham gender tenglik masalasiga to'xtalib o'tilgan. Unga ko'ra: Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi.

### **METODOLOGIYA**

O'zbekistonda gender tenglik jamiyat rivojlanishining muhim omili hisoblanadi. Ayol va erkaklarning teng huquqliligi Konstitutsiya va boshqa normativ-huquqiy aktlar bilan kafolatlangan, shu bilan birgalikda, gender tenglik inson huquqlarini ta'minlash va fuqarolarning erkinligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning asosiy tamoyilidir. Ta'lim sohasida ayol va erkaklar uchun teng imkoniyatlar yaratilishi jamiyatda adolatni kuchaytiradi, mehnat bozorida teng imkoniyatlar yaratish orqali gender adolati ta'minlanadi. Davlat siyosati va normativ-huquqiy aktlar gender tenglikni barqaror rivojlanishning muhim elementi sifatida belgilaydi. Fuqarolik jamiyati institutlari va jamoatchilik nazorati bu jarayonda katta rol o'ynaydi. Natijada, bu tushuncha O'zbekistonda demokratiya, erkinlik va barqaror jamiyat qurilishiga xizmat qiladi.

## МУНОКАМА ВА ТАҲЛИЛЛАР

Ayol va erkaklarning teng huquqliligi jamiyatning barcha sohalarida, xususan, ta'lim, mehnat va siyosiy faoliyatda o'z ifodasini topadi. Ta'lim sohasida teng imkoniyatlar yaratish ayollarning bilim olish darajasini oshirishga yordam beradi va ularning kasbiy faoliyatga jalb qilinishini rag'batlantiradi. Shu bilan birga, erkak va ayolning kasbiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Mehnat bozorida teng sharoitlar yaratish va lavozimlarda ayollarni qo'llab-quvvatlash, jamiyatda adolatli muhitni shakllantiradi. Shu yo'l bilan ayollar va erkaklar orasidagi imkoniyatlar farqi kamayadi va iqtisodiy mustaqillik kuchayadi. Shuningdek, siyosiy va jamoat faoliyatida ayollarning ishtiroki kuchayib borayotgani, ularning qaror qabul qilish jarayonlarida ovozining hisobga olinishi, gender adolatining muhim jihatlaridan biridir.

O'zbekistonda madaniy qadriyatlar va an'anaviy yondashuvlar gender tenglikni amalga oshirishda ba'zan to'siq bo'lishi mumkin. Shu sababli, bu kabi masalalarini ijtimoiy targ'ibot, seminar va treninglar orqali keng jamoatchilikka yetkazish muhimdir. Bu nafaqat shaxsiy ongni oshiradi, balki jamiyatda ayol va erkakning o'zaro hurmati va hamkorligini kuchaytiradi. Shuningdek, yoshlar orasida gender tenglikni targ'ib qilish kelajak avlodning ongida adolat va tenglik tamoyillarini mustahkamlashga yordam beradi. Ularning ta'lim, sport, ijtimoiy va ilmiy faoliyatda teng sharoitlarga ega bo'lishi, jamiyatdagi gender muvozanatini yanada mustahkamlaydi. Shu yo'l bilan O'zbekistonda gender tenglik nafaqat huquqiy jihatdan, balki ijtimoiy va madaniy sohalarida ham barqaror tarzda rivojlanadi.

2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori ham mavjud. Shu bilan birga, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" qonun qabul qilindi. Ushbu qonunning asosiy maqsadi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solish etib belgilandi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, gender tenglik inson huquqlarining erkaklar va ayollarga teng imkoniyatlar beruvchi, jamiyat va davlat hayotida ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikni ta'minlovchi hamda jamiyatlardagi milliy va an'anaviy urf-odat, qadriyatlariga qarab mazmunan farq qiluvchi ajralmas tamoyili ekan. Shu bois, gender tenglikni ta'minlash nafaqat ijtimoiy adolat mezon, balki jamiyatning barqaror taraqqiyoti uchun muhim omildir. Umuman olganda, gender tenglikni mustahkamlash orqali jamiyatda farovonlik, hamjihatlik va ijtimoiy barqarorlikning yuksalishi ta'minlanadi. Shu sababli har bir davlat, ayniqsa islohotlar jarayonida faol rivojlanayotgan mamlakatlar gender tenglikni strategik maqsad sifatida belgilab, uni amaliyotga izchil tatbiq etishi zarur.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2023. – 80 b.
2. O'zbekiston Respublikasi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida” gi O'RQ-562-sonli Qonuni  
[//https://lex.uz/docs/-4494849](https://lex.uz/docs/-4494849)
3. Mirziyoyev Sh.M. BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi. – 2020-yil 23-sentabr. [//https://www.gazeta.uz/oz/2020/09/23/bmt/](https://www.gazeta.uz/oz/2020/09/23/bmt/)